



**O‘SMIR YOSH DAVRIDA BO‘LADIGAN O‘ZGARISHLAR
VA O‘SMIRLAR TARBIYASIGA OTA-ONALAR HAMDA
MAKTAB PSIXOLOGINING TA’SIRI**

Qalandarova Zubayda Ro‘zmatovna

*Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumanidagi 41-sonli umumiy o‘rta ta’lim
maktabi amaliyotchi psixologi*

*Аnnotatsiya. Ushbu maqolada o‘tish davridagi o‘quvchilar bilan ishlashda
dush kelinadigan muammolar va ularni yechishda maktab psixologi va ota-onaning
hamkorligi haqida yoritiladi.*

*Аннотация. В данной статье описаны проблемы, возникающие в работе
с учащимися в переходный период, и сотрудничество школьных психологов и
родителей в их решении.*

*Abstract. This article describes the problems that arise in working with
students during the transition period, and the cooperation of school psychologists
and parents in solving them.*

Kalit so‘zlar: O‘smir, o‘tish davri, oilaviy muhit, tarbiyasi og‘ir o‘quvchilar

*Ключевые слова: Подросток, переходный период, семейная среда,
учащиеся с трудным воспитанием.*

*Key words: Adolescent, transitional period, family environment, students with
difficult upbringing.*

O‘smirlik yillari – ota-onalar uchun ham, bolalar uchun ham murakkab davr.
Bu yoshda farzandlar o‘z fikrini eng to‘g‘ri deb hisoblashadi. Ota-onalar ham

kichkintoy deb hisoblab yurgan bolasining endi o'z fikrini, o'z qarashlarini ayon qilishlarini qabul qilishlari qiyin bo'ladi. Ayniqsa, faqat bolasining g'amida yashaydigan onalarda bu jarayon qiyin kechadi. Bunda ular o'zlarini xuddi endi bolasiga keraksiz bo'lib qolganday his qilishlari mumkin.

Bolalar ham o'zlarini aqlan katta bo'lganday his qilishsa-da, moddiy va jismoniy jihatdan ota-onaga tobe bo'lib qolaveradi. Barcha tushunmovchiliklar shundan kelib chiqadi. Bugungi kunda maktablarda psixologlar bilan bog'liq ayrim muommolar mavjud. Maktabda o'quvchilar bilan ishlash uchun foydalaniladigan testlar zamondan orqada qolgan, deb hisoblayman. Chunki hozirgi o'smirlarning psixologiyasi bu testlar ishlab chiqilgan davrnikidan farqli. Har 20-30 yilda avlod almashadi, bu yangicha qarashlar, yangicha ruh paydo bo'ladi degani. 1996 yildan keyin tug'ilgan avlod – zet avlod, tabiiyki, o'zidan avvalgi avlodlarga nisbatan boshqacha fikrlaydi, ularda psixika boshqa. Ammo ular bilan ishlashda boshqa avlod vakillari bilan o'tkazilgan tajribalarga asoslangan testlardan foydalanilmoqda. Bu testlar ularning ruhiyatini ochib bera olmaydi, shuning uchun ham qo'llashga yaroqsiz. Shunday bo'lsa-da, yuqoridan yuborilgani uchun ham shu testlar aossida ishlashga majbur bo'lamiz. Bitta sinfxonada o'rtacha 30-35 o'quvchi o'tiradi. Savollar soni 50tagacha boradigan testlar ham bor. Psixolog ularni har bir o'quvchiga ishlatib olgach, bittalab hisoblab chiqishi, tavsiflashi lozim. Bunga juda ko'p vaqt va resurs ketadi. Natijada psixolog nima qiladi? Yoki ishlangan testlarni yolg'ondan «salbiy-ijobiy» qilib belgilaydi, yoki testni o'quvchilarga ko'rsatmasdan, o'zi shunchaki belgilab qo'ya qoladi. Aslida ilmiy nuqtayi nazardan olganda, psixologiyaning asosiy metodi kuzatish va suhbat hisoblanadi. Bu ikki metod bilan aniqlanmagan jihatlarnigina testdan qo'shimcha metod sifatida foydalangan holda aniqlash mumkin. Shu sababli **testlar sonini qisqartirish, depressiya, suitsidga moyillik kabi eng zarurlarini qoldirib, treninglarga ko'proq vaqt ajratish maqsadga muvofiq.**

Shuningdek, psixologiya mashg'ulotlari davomida o'quvchilarni kasbga tayyorlash degan metodika bor. Bu borada testlar Yevropa modelidan ko'chirilgan holda bizga modifikatsiya qilingan, lekin bu modifikatsiya noto'g'ri qilingan.

Testlarni ko'rsangiz, bizda uchramaydigan, Yevropadagina bor bo'lgan kasblardan kelib chiqib berilgan savollar bor. O'quvchilar tugul, psixologlarning o'zi ham ularning mohiyatini tushunmaydi.

Aslida psixologik xizmatning maqsadi tarbiyalanuvchilarning ma'naviy va aqliy rivojlanishi, barkamol shaxs sifatida shakllanishi, faol ijtimoiy moslashuvi va ularning yosh davrlari bo'yicha rivojlanishida salomatligini muhofaza qilish, uzluksiz ta'lim jarayonida o'zligini anglashi, individual psixologik xususiyatlari, shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun psixologik-pedagogik shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

O'smir shaxsini shakllantirishda uning atrof muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. Chunki o'smirda muayyan narsalarga nisbatan munosabat shakllangan bo'ladi. O'smir xulq atvorini baholashda (rag'batlantirish yoki jazolashda) kattalarning qat'iyatliliigi, prinsipialligi sinchkov o'quvchi tomonidan tahlil qilinadi. Shuning uchun rag'batlantirish va jazolash usullari oqilona, o'z vaqtida qo'llanilishi kerak. Ma'lumki, Sharqona oila tarbiyasi bilan G'arbona oila tarbiyasida bir-biriga ko'p jihatdan o'xshamaydigan tomonlar mavjud. Olib borilgan dastlabki ma'lumotlardan kelib chiqib, voyaga yetmaganlarning pedagogik nazoratsizligiga sabab bo'ladigan bir qator omillar borligi aniqlandi. O'tkazilgan individual suxbatlarimiz jarayonida 30 foizdan ortiq «pedagogik qarovsiz bolalar o'qiyotgan maktabi, ota-onasi va xalqiga xizmat qilish hamda fidoiyilik ko'rsatishga tayyor ekanliklarini bildirishgan. Shunga ko'ra voyaga etmaganlarning ijtimoiy faolligini oshirish shart-sharoitlarini yaratish dolzarb pedagogik vazifa ekanigi aniqlandi. Ezgulik va adolat tuyg'usi inson tabiatiga xos xususiyatdir. «Pedagogik qarovsiz» bolalarda ana shunday xususiyatlarning shakllanishida ota-onalar va tarbiyachi o'qituvchilarning o'zaro hamkorligi o'z samarasini beradi. Bu jarayonda o'qish va mehnatdan chalg'iyotgan bolalar halol mehnat qilib kun ko'rish bilan, pul topish payidagi kun ko'rishning farqiga borishlari lozim. Chunki pedagogik qarovsiz o'quvchilarni ertami-kechmi tarbiyasi qiyin o'quvchilarga aylanish ehtimoli yo'q emas. Pedagogik qarovsizlikning quyi, o'rta, yuqori va kriminal darajalari farq qilinadi. Voyaga

yetmaganlar jinoyatchiligida oilaviy munosabatlarning o'rni mavzusi yangi ilmiy yo'nalish sifatida kriminologiyada oila kriminologiyasini vujudga kelishiga asos bo'ldi. Oilada, oilaga qarshi sodir etiladigan jinoyatlarning nazariy negizini oila kriminologiyasida ishlab chiqilgan oilani kriminologik tuzatish konsepsiyasi tashkil etadi. Ta'kidlovchi eksperiment natijalariga asoslanib, shakllantiruvchi eksperiment jarayonini 3 ga bo'lib, ya'ni 1-galda pedagogik qarovsiz bolaning fikr yuritish tarzini sog'lomlashtirish zarurligi masalasiga asosiy e'tibor qaratildi. Bular o'z ichiga:

1) fikr yuritish sifati (mustaqil fikrlash tarsi, analitik ko'nikmalar, fikrni sog'lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar, oqilona va to'g'ri xulosa chiqarishga o'rganish, jo'yali maslahat bera olish ko'nikmalarining shakllanishi, jahl, g'azab va jaxolatdan saqlanish hamda o'zini tiya bilish, ruhiy sog'lom va tetik holda fikrlash va hakazo);

2) ijtimoiy faollik ko'nikmalarining asta-sekin rivojlanib borishi (jamo manfaatini o'ylash, ijtimoiy foydali mehnatda o'zini ko'rsata olish, samara beradigan ijobiy mashg'ulotlar bilan shug'ullanish, ijodkorlik ko'nikmalarining shakllanishi, boshqalarga o'z fikr mulohazalarini ma'qul kelishi, tadbirkor bo'lishga intilish va hakazo);

3) kasbga qiziqish motivlarining shakllanishi (sevimli o'qituvchisiga taqlid qilish, fanlarga qiziqish, ilg'or kasb egasiga xavas qilish, ota-onasining kasbga qiziqish kabilar).

Maktablarda psixologik xizmatni samarali amalga oshirish o'quvchilarni kelgusida ruhiy va ma'naviy rivojlanishiga munosib hissa qo'shadi. Ayniqsa, o'smirlar va o'spirinlarda bo'ladigan jismoniy va fiziologik o'zgarishlar ularning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. O'quvchilar o'zlari buni anglab yetishga qiynaladilar. Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Shu sababli bizda o'g'il va qizlarni 10-11 dan 14-15 yoshigacha o'smirlik yoshida deb hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti singari maktablarda ham psixologik xizmatni samarali tashkil etish uchun

to'siq bo'layotgan omillar bor. Masalan, maktab fanlariga psixologiyaga oid fan kiritilmagan yoki psixolog uchun alohida soat ajratilmagan. Shuning uchun psixolog psixodiagnostik ishlarni amalga oshirishda, psixologik trening mashg'ulotlarni o'tishda qaysidir fan mashg'ulotini buzishga majbur bo'ladi. Maktabda qarama-qarshi jins vakillari bilan psixologik maslahat ishlarini olib borish ham murakkablik tug'diradi. Ayniqsa, psixolog erkak kishi bo'lsa, o'quvchi qizlar o'z muammolarini aytgani qiynaladilar. Ko'p holatlarda esa aytmaydilar ham. Har qanday muammoni qisqa vaqt ichida bolaga azob - uqubat va og'riq keltirmasdan ilgari hal qilish, yuzaga kelgan muammolarni ota-onalarga yetkazish va hamkorlikda ish olib borishdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, o'smir yoshida oilaviy munosabatlarni pedagogik sog'lomlashtirish ko'p jihatdan ota-onalarni pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarini talab qiladi. Ayniqsa ota-onani ibrat-namuna ko'rsatish, tarbiyada til va dil birligi bolada ijobiy xislatlarni shakllantiradi. Bu o'rinda bolani nazoratsiz qoldirmaslik, bola bilan go'yo do'stona munosabat o'rnatish, uni eshitish, fikr mulohazalarini tahlil etish, xolisona baholash, kerakli o'rinlarda farzand bilan maslahatlashib, kelishib ish yuritish ota-onaning burchi hisoblanadi.

REFERENCES

1. Abdurasulov R. Psixologning kundalik kitobi. Jizzax – 2005
2. Davletshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va pedagogika psixologiya». O'quv metodik qo'llanma TDPU. 2004.
3. Raxmatullaev. M.A. Maktabda psixologik xizmatni tashkil etish. T.– 2001.
4. To'ychieva G.U., Asadova E. Yoshlar va konfliktlar echimi. Manual. - T.: 2008
5. Felshteyn D.I «Usmir davri tarakkiyoti». M.MGU, 2000 yil